

MUAMMONING QO‘YILISHI. MUAMMONI ISHLASH VA
RIVOJLANTIRISH

Abdulhamidova Hilola Sherzod qizi

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya

Zamonaviy dunyoda hech bir ish kichik bo'lsada muammosiz hal bo'lmaydigandek tuyuladi. Muammolarni hal qila olish qobiliyati kishidagi vaqt va boshqa qayta topilmas narsalarni tejab qolishga yordam beradi. Hayotdagi barcha muammolarni bir xil vaqtda yoki bir xil usulda hal qilishning imkoni mavjud emas. Qaysidir muammo ko'proq e'tibor va kamroq vaqt talab qilgan holda hal etilsa, boshqalarida aksincha – e'tiborsiz harakat asosida bo'lsa ham ko'proq vaqt davomida sabr qilish talab etiladi. Demak, umumiy holda aytish mumkinki, muammo bu – yechim talab qiladigan noaniq masala. Barcha muammolarning ikkita o'xshash jihatlari mavjud: maqsad va to'siq. Maqsad borligi uchun va unga intilganligimiz tufayli har doim muammolar yuzaga chiqaveradi. Maqsadni to'sish mumkin bo'lgan barcha masalalar muammo hisoblanadi. To'siq esa har qanday maqsadga erishish jarayonida paydo bo'ladigan holatdir.

Kalit so'zlar: Muommoni qo'yilishi, maqsad, vazifa,yechim, to'siq, muommoni ishlash, muommoni hal qilish qobilyati,ko'nikma va malaka.

Abstract

In the modern world, it seems that no task, no matter how small, can be solved without problems. The ability to solve problems helps a person save time and other irreplaceable things. It is not possible to solve all problems in life at the same time or in the same way. Some problems can be solved with more attention and less time, while others, on the contrary, require more patience, even if they are based on careless actions. So, in general, we can say that a problem is an ambiguous issue that requires

a solution. All problems have two similar aspects: a goal and an obstacle. Problems always arise because there is a goal and because we strive for it. All issues that can block a goal are considered a problem. An obstacle is a situation that arises in the process of achieving any goal.

Keywords: Problem formulation, goal, task, solution, obstacle, problem solving, problem solving ability, skills and qualifications.

Аннотация

В современном мире, кажется, ни одна задача, даже самая незначительная, не может быть решена без проблем. Умение решать проблемы помогает человеку экономить время и другие незаменимые вещи. Невозможно решить все проблемы в жизни одновременно или одинаковым образом. Некоторые проблемы можно решить, уделив больше внимания и потратив меньше времени, в то время как другие, наоборот, требуют больше терпения, даже если они основаны на неосторожных действиях. Таким образом, в целом, можно сказать, что проблема — это неоднозначная проблема, требующая решения. У всех проблем есть два схожих аспекта: цель и препятствие. Проблемы всегда возникают, потому что есть цель и потому что мы стремимся к ней. Все проблемы, которые могут помешать достижению цели, считаются проблемами. Препятствие — это ситуация, возникающая в процессе достижения любой цели.

Ключевые слова: формулировка проблемы, цель, задача, решение, препятствие, решение проблем, способность решать проблемы, навыки и квалификация.

Kirish. Muammoni yechishda muammo tahlili, yechim yo'llari va yechim topish bosqichlari bosib o'tiladi. Masalan, aytaylik siz "Muhandislar uchun dasturlash asoslari" kursi asosida algoritmlash va dasturlashning boshlang'ich va umumiy kursini o'rganmoqchisiz. Bu yerda maqsadingiz o'zlashtirish, bilim olish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun o'quv

kurslarini chuqurroq hamda o'zingizga tanqidiy, masalaga esa tahliliy yondashishingiz kerak bo'ladi.

Muhandislik masalalarining yechimlarini aniqlash bosqichlarini ham yaxlit muammo yechish bosqichlari kabi hal qilish mumkin. Qo'yilayotgan masala oddiy bo'lsa, uni yechish vaqt va malaka talab etmasligi mumkin. Ammo yechim topilishi zarur bo'lgan masalalar murakkab bo'lganida insonga yordamchi vositalar zarur bo'ladi. Yordamchi vositalar sifatida turli hisoblash qurilmalari (kalkulyator, kompyuter) ishlatiladi. Agar muhandislik hisoblarida kompyuterlardan foydalanmoqchi bo'lsak, yechim topish uchun qanday bosqichlarni bosib o'tishimiz kerak degan savollar yuzaga kelishi tabiiydir.

Asosiy qism. Muammoni ishlash

Muammoni chuqur o'rganish, mavjud nazariy va amaliy materiallarni tahlil qilish, tajriba o'tkazishda asosiy bosqichlar quydagilar.

Adabiyotlarni o'rganish: Mavzuga oid maqola, kitob, tadqiqotlarni tahlil qilish.

Analitik tahlil: Mavjud usullar, yondashuvlar, texnologiyalarni solishtirish.

Tajriba yoki kuzatuv: Muammoni real sharoitda o'rganish uchun eksperiment yoki amaliyot o'tkazish.

Natijalarni qayd etish: Olingan ma'lumotlar asosida xulosalar chiqarish.

Muammoni rivojlantirish

O'rganilgan muammo asosida yangi taklif, metod yoki yechim ishlab chiqish va uni amalda sinab ko'rish yo'llari.

Yangi yondashuv ishlab chiqish: Masalan, yangi o'quv moduli, dasturiy ta'minot, dars ishlanmasi, algoritm va h.k.

Innovatsion g'oya taklif qilish: Mavjud tizimni yaxshilovchi g'oya ilgari surish.

Model yoki metodika yaratish: Amaliy qo'llash uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Sinovdan o'tkazish: Yangi tizimni kichik guruhda yoki test sharoitida amalda qo'llab ko'rish..

Muammoni qo'yilishi

Tadqiqotning boshlanish nuqtasini aniqlash. Ya'ni, mavjud holatdagi muammo yoki yechimini topish lozim bo'lgan masala aniq ifodalanadi.

Dolzarblik: Muammo nima sababdan muhim? Bugungi kunda bu masala nimaga e'tibor qaratmoqda?

Vaziyat tahlili: Hozirgi paytda ushbu sohada qanday holat kuzatilmoqda?

Muammo ifodasi: Qaysi aniq muammo yoki kamchilik bor? Nima yechimi noma'lum?

Tadqiqot obyekti va predmeti: Qaysi soha yoki jarayon o'rganiladi?

Maqsad va vazifalar: Tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad va unga erishish uchun qo'yiladigan bosqichma-bosqich vazifalar.

Xulosa; Tadqiqot jarayonida muammoni to'g'ri aniqlash, uni chuqur o'rganish hamda samarali yechim taklif etish ilmiy va amaliy ishlarning eng muhim bosqichlaridan biri ekanligi yana bir bor o'z isbotini topdi. Har qanday tadqiqot yoki loyihaning muvaffaqiyati, eng avvalo, muammoning to'g'ri qo'yilishiga va uni tizimli ravishda ishlashga bevosita bog'liqdir. Muammo dolzarbligini aniqlash, mavjud holatni tahlil qilish, ilgari surilgan yechimlarni o'rganish orqali yangi, takomillashgan yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, muammoni rivojlantirish bosqichida innovatsion yondashuvlardan foydalangan holda, amaliy jihatdan qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali yechimlar ishlab chiqilishi lozim. Bu esa nafaqat muammoning hal qilinishiga, balki sohaga yangicha qarashlar kiritilishiga ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, "Muammoni qo'yilishi, ishlash va rivojlantirish" tamoyillari asosida olib borilgan har qanday ilmiy yoki amaliy ish yanada puxta, maqsadga yo'naltirilgan va samarali bo'lishi ta'minlanadi. Bu yondashuv bugungi kunda barcha sohalarda muammolarga tizimli va innovatsion yechimlar topishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. N.N. Azizxo‘jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU. 2006 y
2. S.A. Madyarova va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 240 b.
3. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.
4. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.
5. Sh.S. Shodmonova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: “Fan va texnologiya”. 2019 y. -296 bet.